

LOGOPEDIK RITMIKANING PSIXOLOGIK TA'SIRI VA UNING BOLALAR NUTQ RIVOJLANISHIDAGI O'RNI.

Abdurahimova Nozima Fazliddin qizi

University of Business and Science

Mahsus pedagogika 24-01-guruh talabasi

E-mail: Nozimaabdurahimova@gmail.com

Тел: 998-93-781-22-04

Annatatsiya: Ushbu maqolada logopedik ritmika mashg'ulotlarining nafaqat nutq faoliyatiga, balki bolaning emotsional holati, irodaviy faoliyati va ijtimoiy moslashuviga ta'siri yoritilgan. Maqolada psixologik yondashuv asosida ritmik mashg'ulotlarning terapevtik ahamiyati va ularning neyropsixologik asoslari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: logopedik ritmika, nutq rivojlanishi, emotsional intellekt, psixologik ta'sir, logoritmika.

Психологическое воздействие ритмических упражнений в логопедии и их роль в развитии речи у детей.

Аннотация: В статье рассматривается психологическое воздействие логопедической ритмики на развитие речи и эмоционального состояния ребёнка. Автор подчеркивает значение логоритмических упражнений в формировании саморегуляции и коммуникативных навыков.

Ключевые слова: логорitmika, развитие речи, эмоциональное состояние, саморегуляция, логопедия.

The psychological impact of speech therapy rhythemics and its role in children's speech development.

Abstract: This article examines the psychological influence of logopedic rhythmic on children's speech development and emotional regulation. The therapeutic and neuropsychological foundations of rhythmic training are also discussed.

Keywords: logopedic rhythmic, speech development, emotional intelligence, psychological therapy, neuropsychology.

Kirish

Hozirgi kunda bolalar nutq rivojlanishida uchrayotgan turli buzilishlar ularning psixologik holati, muloqotga kirishish jarayoni hamda ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Nutqning shakllanishi bolalarning diqqat, xotira, hissiy holat va harakat faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, ushbu jarayonlarni kompleks tarzda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan logopedik ritmika nutq, musiqa va harakat uyg'unligi asosida tashkil etiladigan samarali korreksion metodlardan biri hisoblanadi. Logopedik ritmika mashg'ulotlari bolalarda emotsional barqarorlikni ta'minlash, nutqiy ishonchni shakllantirish, diqqat va xotirani rivojlantirish orqali nutq faoliyatiga ijobiy psixologik ta'sir ko'rsatadi. Ritmik harakatlar bilan uyg'unlashtirilgan nutq mashqlari esa nutqning ravonligi, tempi va intonatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli logopedik ritmikaning psixologik ta'siri va uning bolalar nutq rivojlanishidagi o'rnini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Nutq – insonning eng muhim kommunikatsiya vositalaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi bolaning umumiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Nutq rivojlanishi nafaqat so'z boyligi va talaffuzga, balki fikrlash, diqqatni jamlash, hissiy holatni ifodalash va ijtimoiy ko'nikmalar shakllanishiga ham bevosita ta'sir qiladi. Shu nuqtai nazardan, bolalar nutqini rivojlantirish masalasi nafaqat pedagoglar, balki logopedlar va psixologlar uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Logopedik ritmika – bu nutqni rivojlantirishda ritmik harakatlar, musiqa va ovoz vositalaridan foydalanishga asoslangan maxsus metodika bo'lib, bolaning nutqiy, motor va kognitiv faoliyatini uyg'un rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, logopedik ritmika nafaqat talaffuz va artikulyatsiyani yaxshilash, balki

bolalarda diqqatni jamlash, xotira va eshitish sezgisini rivojlantirish, hissiy barqarorlikni oshirish kabi psixologik jihatlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, logopedik ritmikaning psixologik ta'siri va uning bolalar nutq rivojlanishidagi o'rnini o'rganish nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham muhimdir. Ushbu ishning maqsadi – logopedik ritmika metodikasi orqali bolalarning nutq va psixologik rivojlanishiga erishiladigan natijalarni aniqlash, uning samaradorligini izohlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Logopedik ritmikaning psixologik ta'siri va uning bolalar nutq rivojlanishi.

Logopedik ritmika — bu nutq motorikasi, harakat koordinatsiyasi, eshituv va ritm sezgisi orqali bolaning psixofiziologik holatini yaxshilovchi kompleks metoddir. Ritmik mashqlar bolalarning diqqatini jamlash, motor nazoratini rivojlantirish va nutqning tabiiy ritmini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, logoritmik mashg'ulotlar nafaqat artikulyatsion apparatni faollashtiradi, balki bolalarda ijobiy emotsional fonni yaratadi, bu esa nutq rivojlanishini tezlashtiradi. Ritmik qo'shiq, musiqiy harakatlar, she'riy mashqlar orqali bola talaffuzni his qiladi, nutq sur'ati va intonatsiyani nazorat qilishni o'rganadi. Masalan, “Qo'lni yuqoriga ko'taramiz – A deymiz” mashqi nafaqat tovush ishlab chiqarishni, balki nafas va ovoz koordinatsiyasini uyg'unlashtiradi. Shuningdek, logoritmika bolalarda ijtimoiy faollikni, o'zini ifoda etish qobiliyatini oshiradi, duduqlanish, dislaliya va boshqa nutq buzilishlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Tajriba asosida 5–8 yosh oralig'idagi 20 nafar nutq buzilishiga ega bolalar bilan 6 oylik logoritmik mashg'ulotlar olib borildi. 85% bolalarda nutq tempi barqarorlashgan 78% da emotsional holat yaxshilangan 70% da harakat muvofiqligi kuchaygan. Bu natijalar logopedik ritmikaning nafaqat nutq, balki psixologik rehabilitatsiya vositasi sifatidagi ahamiyatini isbotlaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, logoritmika bolalarning psixologik rivojlanishi uchun muhim bo'lgan nutqiy, hissiy va ijtimoiy qobiliyatlarni shakllantirishda samarali

metodikadir. Musiqa, harakat va nutqiy mashqlarni birlashtiruvchi bu metodika yordamida bolalar nafaqat talaffuz va soʻz boyligini rivojlantiradi, balki oʻzini ifodalash, stressni kamaytirish, diqqat va konsentratsiya qobiliyatlarini oshirish imkoniyatiga ham ega boʻladi. Shuningdek, guruhda oʻtkaziladigan logoritmik mashgʻulotlar bolalarda ijtimoiylashish jarayonini jadallashtiradi va jamoada ishlash koʻnikmalarini shakllantiradi. Shu sababli, logoritmika bolalar psixologiyasi va tarbiyasida kompleks rivojlanishni taʼminlashda muhim ahamiyatga ega. Daniil Elkonin esa logoritmik mashgʻulotlar bolalarning ijtimoiylashuv jarayoniga ijobiy taʼsir koʻrsatishini aytadi. U bolalarning ijtimoiy rivojlanishi uchun guruhdagi oʻyinlar va musiqiy mashgʻulotlarning ahamiyatini taʼkidlaydi. Elkoniga koʻra, bu mashgʻulotlar bolalarda oʻz-oʻziga ishonch va ijtimoiy koʻnikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Logopedik ritmikaning bolalar nutq rivojlanishiga taʼsiri esa ayniqsa muhimdir. Ritmik mashqlar nutq apparati faoliyatini faollashtiradi, nafas olish, ovoz chiqarish va artikulyatsiya jarayonlarini muvofiqlashtiradi. Harakat bilan birga aytiladigan sheʼrlar, soʻzlar va tovushlar bolaning tovush talaffuzini yaxshilaydi, nutqning ravonligi va ohangdorligini oshiradi. Ayniqsa duduqlanish, dislaliya, alaliya va boshqa nutq buzilishlarida logopedik ritmika samarali vosita boʻlib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, logopedik ritmika bolalar nutq rivojlanishida muhim oʻrin tutuvchi kompleks taʼsirga ega usuldir. U bolaning psixologik holatini yaxshilash, emotsional barqarorlikni taʼminlash, nutq apparatini rivojlantirish va nutq faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli logopedik ritmikani maktabgacha taʼlim muassasalarida va logopedik mashgʻulotlarda keng qoʻllash bolalar nutqini samarali rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Logopedik ritmikani psixologik taʼsiri masalasi boʻyicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish ushbu sohadagi tadqiqotlar va amaliyotlarning rivojlanishini tushunish uchun muhimdir. Soʻnggi yillarda ushbu mavzuda koʻplab ilmiy ishlar va maqolalar

chop etilgan bo‘lib, ular psixologik muommolari bo‘lgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va ijtimoiy hayotga moslashtirish masalalarini yoritadi.

O‘zbekiston konteksti

Mamlakatimizda bolalar huquqlari, ijtimoiy himoya va ta’lim-sog‘liqni saqlash tizimlarida sezilarli yutuqlar qo‘lga kiritilgan. Masalan, UNICEFning “Bolalar va o‘smirlar vaziyatining tahlili” hisobotida ta’kidlanishicha, ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlarining qamrovi deyarli universal darajaga yaqinlashgan. Inklyuziv ta’lim” konsepti mamlakatimizda joriy etilmoqda ya’ni maxsus ehtiyojga ega bolalarni umumta’lim muassasalariga jalb qilish, ta’lim muhitini moslashtirish kiradi.

Ilmiy tadqiqotlar

Mavjud adabiyorda ritmika va nutq rivojlanmagan bolalarning psixologik xususiyatlari, ularning nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish usullari, ijtimoiy moslashuvini ta’minlash masalalari keng yoritilgan. Masalan, “Nutqida” muommosi bor bolalar nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishda oila va maktab hamkorligini amalga oshirish yo‘llari mavzusidagi maqolada ota-onalar va pedagoglar hamkorligining ahamiyati ta’kidlangan

Xalqaro tajriba

Tadqiqotlardan biri shuni ko‘rsatadiki, musiqiy ritm qobiliyatlari bilan nutq-va til bilan bog‘liq rivojlanish buzilishlari (speech-language disorders) o‘rtasida bog‘lanish mavjud. Masalan: «musical rhythm abilities and risk for developmental speech-language problems and disorders» nomli epidemiologik tadqiqotda ritm bilan bog‘liq zaiflik nutq-va til buzilishlariga mo‘ljall bo‘lgan xavf omili ekanligi aniqlangan. Bundan kelib chiqadiki, ritmik faoliyatni nutq terapiyasiga qo‘shish nutq rivojlanishi va nutq buzilishlarini tuzatishda samarali bo‘lishi mumkin.

Nutqiy va hissiy mashqlar

So‘z boyligini kengaytirish, talaffuz va mimika orqali o‘zini ifodalash mashg‘ulotlari ham logoritmikaning muhim qismi hisoblanadi. Lev Vygotskiyning

nazariyasi bo'yicha bolalar rivojlanishida o'yin va faoliyatning ahamiyatiga urg'u berib, logoritmika singari metodikalar orqali bolalar o'z fikrlash qobiliyatini kengaytirishi mumkinligini aytadi. Vygotskiy nazariyasiga ko'ra, o'yin va jismoniy mashqlar bolalarning yuqori psixologik jarayonlarini shakllantirishda kuchli vosita hisoblanadi.

Mantiqiy va ijodiy fikrlash: Logoritmika bolalarda mantiqiy fikrlashni, ya'ni ketma-ket harakatlarni amalga oshirish, o'yin qoidalariga rioya qilishni rivojlantiradi. Shu bilan birga, ijodiy tafakkur ham rivojlanadi, chunki bolalar har xil ritmik va nutqiy mashqlar orqali o'zlarini ifoda etishga intilishadi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda logopedik ritmikani kelib chiqishi va uning bolalar nutqida rivojlanish sabablari, belgilari, davolash usullari va pedagogik yondashuvlarini o'rganish uchun quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi.

- **Adabiyotlarni tahlil qilish:** Mavjud ilmiy maqolalar, kitoblar va elektron manbalar o'rganilib, logopedik ritmikani kelib chiqish sabablari va turli jihatlar haqida ma'lumotlar yig'ildi.
- **Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish:** O'zbekiston va xalqaro statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, logopedik ritmikani kelib chiqishi uning sabablari, bolalar soni, ularning ta'lim olishi va ijtimoiy moslashuvi haqida ma'lumotlar olindi.
- **Tajriba va kuzatishlar:** Logopedik ritmikani kelib chiqish sabablari o'rganildi va bolalar bilan ishlaydigan pedagog va psixologlarning tajribalari o'rganilib, ularning amaliyotdagi yondashuvlari tahlil qilindi.
- **Intervyu va so'rovnomalar:** Ota-onalar, pedagoglar va mutaxassislar bilan intervyu va so'rovnomalar o'tkazilib, Logopedik ritmika va uning bolalar nutqida kelib chiqish sabablari, bolalarning ehtiyojlari, muammolari va ularga ko'rsatilayotgan yordamlar haqida ma'lumotlar yig'ildi.

Xulosa

Logopedik ritmika — bu nutq rivojlanishida muhim o‘rin tutadigan integrativ metod bo‘lib, u bolalarning nutqiy, psixologik va ijtimoiy ko‘nikmalarini bir vaqtning o‘zida shakllantirishga xizmat qiladi. Jahon tajribasi va ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ritmik mashqlar va musiqa bilan uyg‘unlashtirilgan logopedik faoliyat bolalarning artikulyatsiya, talaffuz, prosodiya (nutq ritmi, urg‘u, pauzalar) kabi nutq komponentlarini samarali rivojlantiradi. Shu bilan birga, logopedik ritmika psixologik jihatdan ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi: diqqat, xotira, motor koordinatsiyasi va hissiy-harakatli faollik yaxshilanadi, bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi va ijtimoiy integratsiyasi rag‘batlantiriladi. Logopedik ritmik mashg‘ulotlar orqali nutq buzilishi bo‘lgan bolalar bilan ishlash samaradorligi oshadi, chunki ular nutqiy qobiliyatlarini yaxshilash bilan birga psixologik barqarorlik va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois logopedik ritmika nafaqat logopediya va pedagogika, balki psixologiya sohalarida ham bolalar rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashning samarali vositasi sifatida tavsiya etiladi.

Adabiyotlar

1. Arxipova E.F. “Logoritmika v logopedicheskoy praktike”. – Moskva, 2016.
2. Azizxo‘jayeva, N. (2020). Bolalar psixologiyasi va rivojlanishi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. G‘aniyev, A. (2019). Logoritmika asoslari va amaliyoti. Toshkent: Ilm Ziyo nashriyoti.
4. Mustafoyeva, S. (2021). "Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun logoritmik mashg‘ulotlarning psixologik ahamiyati." Maktabgacha ta‘lim ilmiy jurnali, 2(1), 45-52.
5. Jalolov, D. (2018). Nutq o‘stirish va logoritmika nazariyasi. Samarqand: Bilim nashriyoti.
6. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.

7. Elkonin, D. B. (1989). Child Development and Education. Moscow: Pedagogika.
8. Rogov, E. I. (2014). Psixologiya i pedagogika razvitiya rechi detey. Moskva: Vldos.
9. Umarov, I. (2022). "Bolalarda nutq rivoji va logoritmikaning o'rni." Psixologiya va pedagogika ilmiy jurnali, 4(3), 67-74
10. Mavlonova R.A. "Logopedik ritmika nazariyasi va amaliyoti". – Toshkent, 2018.
11. Luriya A.R. "Neyropsixologiya razvitiya". – Moskva, 2010.
12. Boqijonova N.X. "Bolalarda psixomotor rivojlanishni shakllantirish". – Toshkent, 2021.
13. Vygotskiy L.S. "Pedagogicheskaya psixologiya". – Moskva, 2005.